



TARAKKIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-23, (November) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

MIRZAHMEDOV Xurshid Abdurashidovich

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Namangan davlat universiteti dotsenti

SOLIYEVA MahliyoXon Jo'rabek qizi

Namangan davlat universiteti

talabasi

YOSHLARDA VANDALIZM XULQ-ATVORI SABABI VA OQIBATLARI

Zamonaviy dunyo jamiyati taraqqiyotida inson xohish – istaklarni soni va sifatini o'zgarishi, innovatsion xayot unsurlari ko'payishi orqali deviatsiyaga olib boruvchi xayot tarzini rivojlantirmoqda. Globallashuv bir o'rinda hayoti tarzini jaddallashtirsa ikkinchi tomondan inson xayotiga turli-tuman ijtimoiy deviatsiyalarni muntazam hayoti elementiga aylantirmoqda.

Shu o'rinda, yoshlarning ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy me'yorlarga rioya etmaslik yoki ularning ildizlarini yemirishga qaratilgan deviatsion xatti-harakatlar har bir jamiyatning istiqboliga ta'sir etmay qolmaydi. Ayniqsa, yoshlarning vandalizm xulq-atvori davlat uchun katta moliyaviy zarar keltiradi.

Yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immun muhitini shakllantirish masalani muximligini ko'rsatadi [2].


Barcha tarixiy davrlarda ham yoshlar tarbiyasi, ularning sabr-toqatlilik tuyg'usi va o'zligini anglashi masalasi mamlakat taraqqiyoti, mustaqilligi, kelajagini kafolatlovchi muhim omil sanalgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi" [9].

Bugungi dunyo boshidan kechirgan COVID-19 pandemiya davridan keyin insoniyat uchun og'ir va turli xil xatar va tahdidlar davriga ham aylanmoqda. Xususan, "Ommaviy madaniyat" degan niqob ostida yoshlar axloq va ma'naviyatiga Vandalizm - insonning haqoratlovchi, halokatli deviant harakati shakllantiruvchi, san'at, madaniyat va qadriyat obyektlarini vayron yoki tahqirlashga majburlaydigan ruhiy holat kirib kelmoqda [2].

Vandalizm g'oyasi – ijtimoiy xavfsizlikka qarshi qaratilgan jinoyat, binolar, inshootlar yoki boshqa qurilmalarni ishdan chiqarish, jamoa joylarida yoxud jamoa transportiga zarar yetkazish, bino yoki boshqa inshootlarni taxqirlash, jamoat transporti yoki boshqa jamoat joylaridagi mulkni buzishdan iborat [2].

Vandalizm - moddiy va madaniy boyliklarni o'ylamay-netmay shafqatsizlarcha yo'q qilib tashlash. Vandalizm tushunchasi 455-yilda german qabilalari Rimni talon-taroj qilib, ko'plab antik madaniy obidalarini vayron etganligi tarixiga borib taqaladi. Keyinchalik u johillik, madaniyatsizlik ma'nolarida ham keng qo'llanila boshlagan [4].

Hozirgi kundada bu atama jamoat tartibini buzishning ayrim turlari, xususan, jamoat va xususiy mulkka shikast yetkazish, devorlarga axloqsiz yozuvlarni yozish, talim-tarbiya maskanlaridagi jihozlarni ishdan chiqarish kabi harakatlarni anglatadi.



1-rasm. Yoshlarning vandalizm xulq-atvori shakllanish jaroyoniga munosabati

Vandalizmga misol qilib, 2001-yilda tolibonlar tomonidan Afg'onistondagi qadimiy Buddha haykallari va kobuldagi Milliy muzey eksponatlari yo'q qilgan.[5]

Shuningdek, O'zbekistonda ham vandalizmga misol qilib, 2020-yil Toshkent shahar Amir Temur haykali yonida bobomiz haykali ustidan kulgan yoshlarni aytishimiz mumkin.

Ularni bajaruvchi kishilarni biz vandallar deb ataymiz. Vandallarni vandalizatsiya qilishiga undovchi sabablar qatoriga quyidagilarni kiritish joizdir:

1. Moddiy manfaatdorlik (masalan, muzey, ibodatxona va ziyoratgoh kabi joylarda qimmatbaho buyumlarni og'irlash, yoki ularga shikast yetkazish).
2. PR (public relations) bilan bog'liq vandalizm (shuhratparastlik).
3. O'ch olish maqsadida amalga oshirilgan vandalizm (nafratlangan va g'azablangan kishilariga yetkazgan zarar hamda azob-uqubatidan huzurlanish).
4. O'yinning bir qismi sifatida (ko'ngilxushlik qilish uchun) amalga oshiriladigan vandalizm va hokazo.

O'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma natijalariga ko'ra, berilgan, "Nima uchun vandallar narsalarni buzishni yaxshi ko'rishadi?" degan savolimizga 75 ta respondentdan 44% "qasd olish uchun" degan javobni berishi bilan yoshlar o'rtasida yuqoridagilarning uchinchi turi yuqori ekanligini bilishimiz mumkin.

Vandalizm eng ko'p uchraydigan joylar hudud uchun hech kim to'g'ridan-to'g'ri javobgar bo'lmagan yoki unchalik yaxshi qo'riqlanmagandek ko'rinadigan mulklar ham vandalizm nishoniga aylanadi. Ko'pincha vandalizm kechki soatlarda amalga oshiriladi. Ayniqsa, voyaga yetmagan vandallar uchun esa darsdan keyingi soatlar ham keng tarqalgan.

Ko'p hollarda, o'zini nazorat qila olmaslik, buzg'unchi harakatlar qilishga undaydi. Bunday harakatlarni amalga oshiruvchi o'zi yolg'iz yoki uyushgan guruh a'zolari bo'lishi mumkin. Ularni vandalizatsiya qilishini oldini olish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rilishi kerak. Agar ularga e'tibor berilmasa, boshqa og'ir jinoyatlarga olib kelishi mumkin.

Buning uchun esa avvalo tarbiyaga ahamiyat qaratish lozim. Chunki, Abdulla Avloniy aytganidek, “Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o’g’rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalariga e’tibor berilmagan bolalardir” [6].

Xulosa qilib, yoshlarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalash eng avvalo oilada shakllantirish kerak. Oilada bola tarbiyasini yoshligidan milliy qadriyatlarimiz ruxida tarbiyalash, yaxshi xulqli odobli bilimli qilib o’stirish xar birimizning burchimizdir. Yuksak o’zgarish va isloxotlar davrida yangi avlodlarimiz qalbida sabr madaniyatini va sog’lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Faqat shunday asosda yangi avlodlarni o’z fikriga ega, turli ma’naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo’lgan, irodali, fidoyi va tolerant insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin [1].

Vandalizm xulq-atvorining hudud va mintaqalarda juda keng ko’lamda namoyon bo’lishi, avvalo, ma’naviyat va azaliy qadriyatlarining inqirozga uchrayotganidan dalolat beradi. Har bir ota-ona, har bir xonadon, har bir mahalla, bugungi kunda farzandlarimiz ta’lim-tarbiyasini eng asosiy vazifa sifatida bilib, yoshlarni xalqimizga yot va yangi avlod ongi uchun zararli bo’lgan salbiy ta’sirlardan himoya qilish, millat va davlat taraqqiyotini dunyo hamjamiyatiga ko’rsatishga qodir bo’lgan yosh avlodni tarbiyalashi ham qarz, ham farzdir. Zero, inson hayoti odob-axloq, ta’lim-tarbiya bilan bevosita bog’liq [7].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзахмедов Х.А. Ёшларда хиссиётлилиқ феномени. Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. №3 (91) 2020. – Б.123-127.
2. Мирзахмедов Х.А. Ёшлар ахлоқида вандализм \ \ Маҳкум шахсларни ахлоқий тузатиш ва тарбиялашнинг илмий-амалий масалалари Республика онлайн илмий-амалий анжуман. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти, 2020. – Б. 152-156.
3. Мирзахмедов Х.А. Бегоналашув ва худбинликни қандай енгамиз? \ \ Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги расмий сайти. \ \ URL: <https://edu.uz/uz/news/view/2344>
4. <https://uz.m.wikipedia.org>
5. <https://telegra.ph/Vandalizm-04-10>
6. <https://yuz.uz/uz/news/tarbiya--buyuk-nemat>
7. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekistonning-kelajak-yoshlari-imkoniyat-va-huquqiy-kafolat>
8. <https://sputniknews-uz.com/analytics/20170703/5736267/Mirziyoyev-yoshlarga-Hukumat-eshiklarini-ochdi.html> (кўрилган муддати: 18.08.2023)
9. Содиржонов М. Изучение проблем человеческого капитала в этносоциологических процессах //in Library. – 2021. – Т. 21. – №. 4. – С. 59-69.
10. Sodirjonov M. M. Transformation of Social Capital in Ethnosocial Processes //НАУКА И ИННОВАЦИИ В XXI ВЕКЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ОТКРЫТИЯ И ДОСТИЖЕНИЯ. – 2021. – С. 159-161.
11. Sodirjonov M. SOME FACTORS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL CAPITAL. – 2023.
12. Bakhtiyorovich, Mallabev Botirjon, and Sodirjonov Muxriddin Maxamadaminovich. "HUMAN CAPITAL IN ETHNOSOCIAL PROCESSES: DYNAMICS AND TRANSFORMATION."